


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.I.Obidjanov	
Laboratoriya mashg'ulotlarining biologiya fanini o'zlashtirishga ta'siri.....	96
M.A.Abduxalilova	
O'quvchilarda ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini shakllantirish	100
M.A.Mamasaidova, M.X.Akbaraliyeva	
Boshlang'ich ta'lrim o'quvchilariga ko'paytirish amalini o'rgatishning interfaol usullari	107
G.S.Qosimova	
Tibbiy ta'limga matematik modellashtirish orqali organizmning funksional holatlari va himoya-moslashuv jarayonlarini o'qitish usullari.....	112
S.R.Toshboyeva, L.A.Yusupova	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kombinatorika elementlarini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy qoidalar	117
A.A.Мирзалиев	
Пути повышения эффективности системы морально-психологической подготовки и теоретическая модель ее организации.....	121
A.T.Akbarov	
Basketbolning jismoniy rivojlanish va salomatlikni mustahkamlashdagi muhim roli	127
S.M.Sidiqov	
Yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan foydalanish	132
Z.N.Usmonov	
Jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiysi jarayonini rejalashtirishga qo'yiladigan talablar.....	137
S.T.Xakimov, N.B.Komilova	
Umumiylar ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish (basketbol sport turi misolida)	142
X.T.Xasanov	
Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi xususiyatlari	147
G.K.Yakubova	
Turli yoshdagagi odamlarning har hil sharoit va hududlarda nafas olishini tahlil qilish.....	153
T.T.Yusupov	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun gimnastika mashqlari majmuuni tuzish va uni o'tkazishga qo'yiladigan talablar	158
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixi bo'yicha bilimlarni shakllantirishning pedagogik jihatlari	164
A.M.Maxmutaliyev	
Umumta'lim maktabining boshlang'ich jismoniy madaniyat jamoasi faoliyatida innovasiyalar.....	168
D.E.Yuldasheva	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyasi	173
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik imoniylatlari	178
D.E.Yuldasheva	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv modeli	182
L.E.Bobomurodova	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ma'naviy va kasbiy sifatlariga qo'yilgan talablar	189
G.O'.Yuldasheva	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirish: komponentlar va ularning ahamiyati.....	194
E.K.Muxtarov	
Kvant mexanikasi fanidan amaliy darslarda masalalarni yechishning metodik jihatlari	194



УО'К: 378.014.15

**BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA O'ZBEK MUSIQASI TARIXIGA DOIR
BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMONIYATLARI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗНАНИЙ ПО ИСТОРИИ УЗБЕКСКОЙ
МУЗЫКИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ**

**PEDAGOGICAL CONSIDERATIONS FOR DEVELOPING KNOWLEDGE OF THE HISTORY OF
UZBEK MUSIC AMONG FUTURE MUSIC TEACHERS**

Mirzaaxmedova Yulduz Jamshid qizi 
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish parametrlari, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning samaradorligi o'rnatilgan. Shuningdek, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik imoniyatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методические основы формирования знаний по истории узбекской музыки у будущих учителей музыки, параметры формирования знаний по истории узбекской музыки у будущих учителей музыки, эффективность формирования знаний по истории узбекской музыки у будущих учителей музыки. Также были проанализированы педагогические последствия формирования знаний об истории узбекской музыки у будущих учителей музыки.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of developing knowledge about the history of Uzbek music among future music teachers, the parameters of developing knowledge about the history of Uzbek music among future music teachers, the effectiveness of developing knowledge about the history of Uzbek music among future music teachers. Also, the pedagogical implications of developing knowledge about the history of Uzbek music among future music teachers are analyzed.

Kalit so'zlar: musiqa, o'zbek musiqasi tarixi, musiqa ta'limi, texnologiya, kompetentlik, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, shakl, metod, vosita, baholash, kreativ fikrash, refleksivlik, ijodkorlik, milliy musiqiy merosni asrash, musiqiy madaniyatni shakllantirish.

Ключевые слова: музыка, история узбекской музыки, музыкальное образование, технология, компетентность, совершенствование, педагогический, технологический, модель, дидактический, форма, метод, инструмент, оценка, творческое мышление, рефлексивность, креативность, сохранение национального музыкального наследия, формирование музыкальной культуры.

Key words: music, history of Uzbek music, music education, technology, competence, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, form, method, tool, evaluation, creative thinking, reflexivity, creativity, preservation of national musical heritage, formation of musical culture.

KIRISH

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish uchun avvalo milliy musiqiy merosga aksiologik ehtiyojni shakllantirish, ularda milliy ehtiyojni anglashlariga imkon berish, ta'sir ko'rsatish va bu jarayonga qaratilgan kognitiv pedagogik faoliyatni takomillashtirish talab etiladi. Umuman olganda, har bir inson hayotida ehtiyoj bilan qobiliyat uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Kognitiv faoliyat sub'ektining ehtiyoji kabi uning qobiliyat ham nafaqat fiziologik, shu bilan birga, ijtimoiy mohiyatga egadir. Binobarin, bu qobiliyatlar ijtimoiy hayot jarayonida shakllanadi, o'zgaradi va taraqqiy etadi. Demak, aksiologik faoliyat sub'ekti insonning aksiologik ongi, shu bilan birga, uning aksiologik ehtiyojlarini qondirish borasidagi tasavvur va qarashlarini ham o'z ichiga oladi. Modomiki, aksiologik faoliyatning maqsadi inson ehtiyojlarini qondirishdan iborat ekan, inson bu faoliyatning nafaqat sub'ekti, balki ob'ekti

ham sanaladi. Demak, o'quvchi milliy musiqiy merosga oid qadriyatlarni ob'ekt sifatida idrok etadi, ehtiyojlarni qondiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Milliy musiqiy merosni asrash, musiqiy madaniyatni shakllantirish, millat va elatlarning turli ko'rinish va mazmundagi musiqiy merosiga aksiologik munosabatni shakllantirish, xalqlarining milliy musiqiy merosi va uning asrashga doir ilmiy-tashkiliy loyihalarni rivojlantirish kabi masalalar D.Karomatli, T.Levin, E.Abdulin, Ye.Bodina, O.Bochkareva, E.Burzina, N.Ivanov, S.Bulatov, B.Azimov, S.Annamuratova, O.Vasilchenko, SH.Janaydarov, F.Jo'raev, D.Kamolova, H.Nurmatov, F.Xalilov, R.Abdullaev, S.Begmatov, T.Vizgo, O.Ibrohimov, F.Karomatov, I.Rajabov, T.G'ofurbekov, A.Hasanov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish uchun ulardagi qiziqish va ehtiyojlarni yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. SHuning uchun ham, o'quvchilarga musiqa tarbiyasini berish jarayonida ularning musiqiy ehtiyoj va qiziqisharini doimiy suratda shakllantirib va tarbiyalab borish muhimdir. Bundan tashqari, o'quvchilarning milliy musiqiy merosni o'zlashtirishidagi o'ziga xos xususiyatlardan biri ularda barqaror diqqatniing bo'lismidir. Ongimizni bir nuqtaga to'plab, ma'lum narsa va hodisalarga faol yo'naltirilishiga diqqat deb ataladi. Diqqat shunday bir muhim jarayonki u odamning barcha faoliyatlarida albatta ishtirok etadi. Eng sodda faoliyatdan ham eng murakkab faoliyatgacha diqqatning ishtiroksiz bajarish mutlaqo mumkin emas. SHuning uchun diqqatning inson hayotidagi roli benihoyat kattadir. Diqqatning bilish jarayonidagi ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish lozimdir. Diqqat sevish, idrok qilish, xotira, xayol va tafakkur jarayonlarida har vaqt ishtirok etadi. Demak, diqqat barcha aks ettirish jarayonlarining doimiy yo'ldoshidir. U barcha psixik jarayonlarda ishtirok etsa ham, lekin yolg'iz diqqatning o'zi hech narsani aks ettira olmaydi.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining musiqiy faoliyatlarida yaxshi najalarida erishishda nutq yoki talaffuzning roli ham katta. CHunki aynan talaffuz yoki diktsiyaning qay darajada bo'lishi qo'shiq so'zlarningta'sirli, jozibali bo'lismiga bog'liq bo'ladi. Xuddi shuningdek, musiqiy ijroni amalga oshirish uchun tovushlar harakati, musiqiy ifoda vositalari, ovozni ma'lum shaklda yo'naltirish va yana ko'pgina faoliyatlar bo'yicha maxsus malakalarga ega bo'lmasdan qo'shiq kuylab bo'lmaydi. Xotira bir qancha jarayonlardan iborat bo'lib, ular qo'yidagilardir: a) esga olish (esda olib qolish), b) esda saqlab turish, v)qayta esga tushirish, g) unitish. Bular hammasi birgalikda xotira jarayonlarini tashkil qiladi va har qandayfaoliyatda ularning ma'lum qismi boshqalari bilan o'zaro aloqadorlikda bo'ladi.

Musiqa tinglash musiqa darsida eng mas'uliyatlari va qiziqarli bosqich bo'lib, uning o'quvchilar uchun qanchalik darajada qiziqarli bo'lishi darsni olib borayotgan o'qituvchining shu darsga nisbatan qanchalik mas'uliyat bilan yondashayotganligiga bog'liq bo'ldi. Musiqa tinglashda tinglangan musiqani bilib olish, aniqlash, boshqa tinglangan musiqalar bilan taqqoslash uchun, ba'zan tashqari musiqaning ifoda vositalarini aniqlab olish, uning ijrochilari tarkibi haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lish uchun musiqiy xotiraning juda katta o'rni bor. CHunki agar musiqiy xotiramiz bo'lmaganida biz yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni baxolay olmas edik.

Musiqa darsi maktabda musiqa tarbiyasini tashkil qilishning asosiy shakli bo'lib hisoblanadi. Musiqa bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar, musiqa tugaraklari ish yuritgani bilan musitqa darsi hamma o'quvchilarni qamrab olgani uchun o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Dars o'quvchilarning turli faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Bular: ko'ylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa tinglash bo'lib, bir birini to'ldirib va boyitib boradi. Qo'shiqni o'rganish yoki musiqa asarini tinglab uni tushunib olish uchun bir nechta dars davomida bu faoliyat amalga oshiriladi. SHuning uchun bir darsning o'zida o'tgan darsdagi qo'shiqning yangi qismi o'rganiladi, oldin o'rganilgan qo'shiqlar takrorlanadi.

Musiqa darslari uchun o'ziga xos emotsiyonal holatlar zarur, chunki musiqa bu hissiyotlar tilidir. U o'quvchilarni hayajonlantiradi, ularda ma'lum kayfiyat va kechinmalar ta'surotlar hosil qiladi.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining diqqatini musiqa yangrashiga jalg qilish ularni tasavvurlarini rivojlantirish orqali ularni musiqiy obrazlarni chuqur tushunishga, ularni ifodaliligini his qilishga yordam beradi. Umumiyligi belgilarga qaramasdan, har bir dars uning mazmuniga yuklangan badiiy va ta'limiy vazifalarga ko'ra o'ziga xos va betakrordir. Ma'lumki, musiqa darsini

talab darajasida tashkil etish muvaffaqiyatlari sari harakat qilish hisoblanadi. Unda darsning maqsadlari, mazmuni va tuzilishi, vosita va ish usullarini aniq o'ylab chiqilgan bo'lishi kerak, busiz ijobjiy natijalarni qo'lga kiritish qiyin. Darsga tayyorlanish o'qituvchining mahoratiga malaka va bilimlariga bog'liq bo'lib, shu orqali musiqa materiali va uni qo'llashning tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlari ro'yobga chiqarish uchun musiqa materialini tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda musiqiy tayyorgarlik darajalarini ko'zda tutish zarur.

Dars uchun olinadigan qo'shiqlar o'z xarakteri, kayfiyati, ritm usullari jihatdan turlicha bo'ladi. SHuning uchun darsning yaxlitligini ta'minlashda uning tuzilishiga, ya'ni turli musiqiy faolyatlarning ketma ketligiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq. O'quvchilarning darsda qay darajada qiziqayotganligi yoki zerikarli bo'lishi darsdagi ish uslublarining o'zgartirilishini talab qiladi. Bu ko'p hollarda o'quvchilarning xarakter xususiyatlari va musiqa darsiga munosabatida kurinib turadi.

Darsning shaklini ongida tasavvur etib o'qituvchi bir musiqa materialidan boshqasiga o'tishda hissiy kayfiyatni saqlashga o'quvchilar diqqatini doimiy suratda asosiy holatlarga qaratishga harakat qiladi. Darsning tuzilishini tasavvur qilishda har bir sinf o'quvchilarining jismoniy, aqliy va hissiy holatlарini hisobga olish lozim. Masalanda, o'quvchilar diqqatining juda qisqa vaqt bir xil turishini nazarda tutib, boshlang'ich sinf o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarini almashtirish zarur, bu orqali o'quvchilarning darsga qiziqish va intilishlari yangilanib turadi. O'rganish qiyinroq bo'lgan qo'shiqlarni bir necha dars davomida o'rganish maqul, chunki bir ikki soatda o'quvchilarni charchatib bo'lsada, qo'shiqn ni o'rganish ularda qiziqishning pasayishiga zerikishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari mazkur darsning dars jadvalidangi o'rning ham e'tiborni qaratish kerak. Ya'ne bu dars birinchi soatdami, uchinchi yoki oltinchi soatda bo'lishi ma'lum ahamiyatga ega. Agar oxirgi darslarda qo'yilgan bo'lsa, bunda bolalarning charchaganligi yaqqol sezilib turadi, darsda yaxshi natjalarga erishish uchun faoliyat turlarini o'zgartirib turish hamda ularningsh darsga bo'lgan qiziqishlarini bir maromda saqlab turishga harakat qilish kerak. Musiqa darsining qaysi darsdan so'ng qo'yilganligi ham ahamiyatga ega. Agar mehnat ta'limi, jismoniy tarbiya singari fanlardan so'ng musiqa darsi qo'yiladigan bo'lsa o'quvchilarning sokin holatda keltirish va diqqatini jamlab olishga yordam beradigan musiqiy faoliyatlardan foydalananish kerak. Har bir aniq holatda o'quvchini sinf o'quvchilarining u yoki bu musiqiy faoliyatga qiziqishini nazarda tutishi lozim.

Har bir darsni rejalashtirishda uning tuzilishini shunday qilish kerakki, har doim real sharoitlarga mos bo'lishi hamda o'qituvchining ijodiy yondashuvi zarur, bu esa har bir darsni o'ziga xos va betakror shaklda olib borishga imkoniyatlar yaratadi. Albatta, bir musiqa darsidan keyingi darsgacha bir hafta vaqt o'tadi, bu vaqt oralig'ida turli darsla bo'ladi hamda musiqaga aloqasi bo'lmagan ko'pgina taassurotlarga ega bo'linadi. SHunga qaramasdan har bir dars shunday tashkil qilinishi kerakki uning taassurotlari kelasi darsgacha bolalar xotirasida jonlanib tursin.

Dars hamisha oldindan puxta uylangan ish uslubi bo'yicha olib boriladi, lekin o'qituvchi va o'quvchi birligida bajaridagan ijodiy jarayon bo'lganligi uchun uning hamma detallarini oxirigacha oldindan uylash mumkin emas. Ba'zi kutilmagan holatlarni oldindan bilish qiyin, buning natijasida dars tuzilishini yo'l-yo'lakay o'zgartirishga to'g'ri kelishi mumkin. Mazkur holatlar o'qituvchidan sabot va chidam, ma'lum sharoitlarda ish uslubini o'zgartirishini talab qiladi.

Ma'lumki zamонави darsning sifati ma'lum darajada o'quvchilar faolligi bilan aniqlanadi. O'quvchilar faolligi muammosi faqatgina qiziqishlarni ta'minlaydigan dars shakli va ma'lum metodlarni qo'llash bilan hal bo'lmaydi.

Ko'p narsa o'qituvchining har bir o'quvchiga individual yondashuviga ham bog'liq, bu esa o'qituvchi oldida turgan eng qiyin vazifalardan biridir. CHunki o'qituvchi o'z o'quvchilarini bilan haftada bir marta musiqiy mashg'ulotda bo'ladi, bunda ham butun sinf jamoasi bilan. SHuning uchun o'qituvchi o'z o'quvchilarini, ularni kuchli va kuchsiz tomonlarini, qiziqish va intilishlarini bilishi, har bir bolaning dunyosini tasavvur qila olishi, har bir o'quvchini ijobjiy baholashga harakat qilishi zarur.

XULOSA

Darsda bolalarni muloqotga chorlaydigan, ularni fantaziyasini uyg'otadigan, fikrlashga tortadigan holatlarni yaratish kerak. O'quvchilarga individual yondashuvni musiqiy faoliyatlarining ko'pgina ko'rinishlarida amalag oshirish mumkin. Ayniqsa, qo'shiqn yakkaxon va xor ijrosida kanon sifatida ko'ylatish yaxshi natjalarga olib kelishi mumkin. Qiziqtiradigan vazifalar esa o'quvchilarning

musiqiy rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Natijalarni baholash, toza va to'g'ri ko'ylashga yordam berish o'quvchida o'z-o'zini nazorat qilishni tarbiyalaydi. Musiqiy ijroda qynaladigan, qobiliyatni sust rivojlangan bolalarni qullab-quvvatlash, hatto kichik yutuqlarni ham aytib rag'batlantirish ularda sinf jamoasiga nisbatan hurmatni tarbiyalaydi. Bajarilayotgan musiqiy ishga nisbatan javobgarlik va asarni ijro etishda jamoa oldidagi mas'uliyatni his qilib har bir o'quvchi umumishining natijasi uchun o'zida kuch topadi va bu ish chiroyli va xatosiz holda ijro etilgan musiqa bolalarda quvonch va qoniqish hissini hosil qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Charles C. Bonwell and James A Eison. (1991). Active Learning: Creating Excitement in the Classroom. ERIC Digest., pp. 1-6.
2. Rokeach M. The role of values in public opinion research // The Public Opinion Quarterly. Vol. 32. No. 4. – P. 547-559.
3. Панжиев Қ, Азизов Р. Эстрада кўшиқчилиги ёшларни тарбиялашнинг маънавий воситаси сифатида. Замонавий таълим. 2018. №7. –Б. 12.
4. Раҳим Ш. 30-35 йил мусиқа йўлида. // Ер юзи. 1926. № 10. –Б. 8-9.
5. Тургунова Н. Санъатда яллачилик анъаналари. // Санъат йўналишларида ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш: изланиш, ечим ва истиқболлар. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. Бухоро. 2013. –Б. 40-41.
6. Ходжаев Б. Педагогик аксиология. – Тошкент.: "Fan va texnologiya", 2012. – Б.17.
7. Юлдошев У.Ю. Миллий мақом асарлари асосида бўлажак мусиқа ўқитувчисининг ижодий тафаккурини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент.: ТДПУ. 2021. –Б. 10